



ISSN: 2181-9416

1-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

AHROROVA Sayohat Akram qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Biznes huquqi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: sayohatahrorova@gmail.com

SUN'IY INTELLEKT RAQOBAT HUQUQI KESIMIDA: HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI YANGI CHAQIRIQLAR

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): AHROROVA S.A. Sun'iy intellekt raqobat huquqi kesimida: huquqiy tartibga solishdagi yangi chaqiriqlar // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2026) B. 73-82.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sun'iy intellekt hamda uning raqobat huquqi doirasida huquqiy tartibga solish masalalari hamda ahamiyati yoritib beriladi. Bunda, asosan, sun'iy intellektning raqobat muhitiga qay darajada ta'sir o'tkazgani, uning raqamli bozordagi o'ziga xos jihatlari hamda raqobatga zid xatti-harakatlarni keltirib chiqarishi bilan bog'liq jihatlari tahlil ostiga olinadi. Raqamli bozorning yangi avlod vakillari sanalmish sun'iy intellekt hamda uning mevasi hisoblanadigan ChatGPT, AI va shu kabi data yordamchilar an'anaviy bozorlarda uchraydigan raqobatga zid xatti-harakatlarni qanday amalga oshirishi, bundagi subyekt masalasi hamda raqamli platformalarning dastlabki shakllaridan qanday o'ziga xos farqlari mavjudligi muallif tomonidan o'rganiladi va asosiy taklif-tavsiyalar xulosa sifatida ilgari suriladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan raqobatga zid harakatlarni kelib chiqishiga zamin yaratilishi natijasida qanday huquqiy oqibatlar yuzaga kelishi alohida o'rganiladi, jumladan, platformalar tomonidan ustun mavqeni suiiste'mol qilish, raqobatga zid kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan xatti-harakatlar, iqtisodiy konsentratsiya va insofsiz raqobat kabilar shular jumlasidandir. Bundagi eng yirik muammo sifatida huquqiy tartibga solish mexanizmining mutlaqo mavjud emasligi aytilib, bugungi kunga kelib mahalliy bozorlarimizda ham sun'iy intellekt tomonidan raqobatga zid harakatlarni keltirib chiqarish holatlari kutilayotganiga katta urg'u beriladi. Raqobat huquqida bu borada hali yakdil qonun normalari ishlab chiqilmagan bo'lib, buning natijasida huquq tizimi oldida bir qator muammolar bo'y ko'rsatayotgani haqida ham bahsli munozaralar yuritiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli bozor, raqamli platformalar, insofsiz raqobat, iqtisodiy konsentratsiya, ustun mavqe, ustun muzokara kuchi, kartel kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar, raqobatga qarshi kelishuvlar.

АХРОРОВА СаёхатТашкентский государственный юридический
университет Преподаватель кафедры бизнес-праваE-mail: sayohatahrorova@gmail.com

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В КОНТЕКСТЕ КОНКУРЕНТНОГО ПРАВА: НОВЫЕ ВЫЗОВЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы и значение искусственного интеллекта, а также особенности его правового регулирования в рамках конкурентного права. В частности, анализируется степень воздействия искусственного интеллекта на конкурентную среду, его

специфические характеристики на цифровом рынке и аспекты, связанные с возникновением антиконкурентных действий. Автор исследует, каким образом искусственный интеллект, рассматриваемый как представитель нового поколения субъектов цифрового рынка, а также его продукты, такие как ChatGPT, системы на основе ИИ и иные дата-ассистенты могут способствовать реализации антиконкурентных практик, традиционно характерных для классических рынков. Особое внимание уделяется проблеме определения субъекта ответственности, а также выявлению отличительных особенностей цифровых платформ по сравнению с их первоначальными формами. Основные выводы и предложения представлены в заключительной части статьи.

Кроме того, отдельно анализируются возможные последствия, возникающие в результате создания искусственным интеллектом условий, способствующих формированию антиконкурентного поведения. К таким последствиям, в частности, относятся злоупотребление доминирующим положением со стороны платформ, антиконкурентные соглашения, согласованные действия, экономическая концентрация и недобросовестная конкуренция. В качестве одной из наиболее существенных проблем указывается полное отсутствие эффективного механизма правового регулирования, при этом особый акцент делается на возрастающей вероятности провоцирования искусственным интеллектом антиконкурентных действий. В рамках конкурентного права до настоящего времени не выработан единый комплекс правовых норм, регулирующих данные отношения, что, в свою очередь, порождает ряд серьезных проблем для правовой системы. В статье также ведутся дискуссионные обсуждения, посвященные существующим пробелам в регулировании.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровой рынок, цифровые платформы, недобросовестная конкуренция, экономическая концентрация, доминирующее положение, превосходящая переговорная сила, картельные соглашения, согласованные действия, антиконкурентные соглашения.

SAYOKHAT Akhrorova

Tashkent State University of Law
Lecturer at the Department of Business Law
E-mail: sayohatahrorova@gmail.com

ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE CONTEXT OF COMPETITION LAW: NEW CHALLENGES IN LEGAL REGULATION

ANNOTATION

This article examines the issues and significance of artificial intelligence and its legal regulation within the framework of competition law. In particular, the study analyzes the extent to which artificial intelligence affects the competitive environment, its distinctive features in the digital market, and its potential to give rise to anticompetitive conduct. The author explores how artificial intelligence considered a new generation actor in the digital market and its products, such as ChatGPT, AI-based systems, and other data-driven assistants, may facilitate anticompetitive practices traditionally observed in conventional markets. Special attention is paid to the issue of identifying the relevant subject of liability, as well as to the distinctive characteristics that differentiate digital platforms from their early forms. The main findings and recommendations are presented in the concluding section.

Furthermore, the article separately examines the potential consequences arising from artificial intelligence creating conditions conducive to anticompetitive behaviour. These consequences include, inter alia, abuse of a dominant position by platforms, anticompetitive agreements, concerted practices, economic concentration, and unfair competition. One of the most significant challenges identified is

the complete absence of an effective legal regulatory mechanism, with particular emphasis placed on the growing likelihood of artificial intelligence inducing anticompetitive conduct. Within the scope of competition law, there is still no unified set of legal norms addressing these issues, which in turn gives rise to a number of challenges for the legal system. The article also engages in critical discussions concerning these unresolved regulatory gaps.

Keywords: artificial intelligence, digital market, digital platforms, unfair competition, economic concentration, dominant position, superior bargaining power, cartel agreements, concerted practices, anticompetitive agreements.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (keyingi o'rinlarda SI) sohasi misli ko'rilmagan darajada jadal rivojlandi. Bu jarayon, ayniqsa, 2022-yil oxirida OpenAI tomonidan ChatGPT ishga tushirilishi bilan yaqqol namoyon bo'ldi [1]. Mazkur texnologik yutuq generativ SI mahsulotlarining jadal ko'payishiga turtki berdi: kompyuter kodini yozish, xatolarini aniqlash va optimallashtirishga xizmat qiluvchi kopilotlardan tortib, emotsional qo'llab-quvvatlash va muloqot taklif etuvchi SI asosidagi virtual hamrohlarigacha bo'lgan keng doiradagi xizmatlar paydo bo'ldi. OpenAIning GPT modellari, Google'ning Gemini hamda Anthropic'ning Claude kabi yangi AI "foundation" modellari tayyorlanishi va ishlashi uchun zarur bo'lgan GPU chiplariga bo'lgan keskin talab Nvidia kompaniyasining 2024-yilda dunyodagi eng qimmat uchta kompaniyadan biriga aylanishiga olib keldi.

Raqobatni muhofaza qiluvchi organlar ushbu jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri yirik texnologik kompaniyalarning, xususan, Google va Microsoft AI sohasidagi faol va chuqur ishtirokidir. AQSh Adliya vazirligi va Federal savdo komissiyasi, Yevropa Komissiyasi hamda Buyuk Britaniyaning Raqobat va bozorlar boshqarmasi yirik SI kompaniyalari va ularning biznes amaliyotlari yuzasidan antimonopoliya tekshiruvlarini boshlagan [2].

Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt yutuqlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, iste'molchilarning huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida undan foydalanish chegaralarini belgilash uchun sohaning huquqiy asoslarini yaratish zaruriyati ham mavjuddir. Hozirgi kunda, sun'iy intellekt doirasidagi mahalliy ijtimoiy munosabatlar bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinmoqda [3]. Ushbu hujjatlar bilan sun'iy intellekt texnologiyalari sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot, ijtimoiy va davlat boshqaruvi kabi sohalarga tatbiq etilishi belgilangan. 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida qarori qabul qilinishi ushbu sohadagi ishlarni bir tizimga solish va tashkillashtirish imkonini berdi. Jumladan, "Sun'iy intellektga tayyorlik indeksida O'zbekiston Respublikasi o'rnini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" tasdiqlandi. Unda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish, qishloq xo'jaligi, energetika, sog'liqni saqlash, elektron hukumat sohalariga mazkur texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo ushbu asoslar bugungi kun uchun yetarli emas deb baholanmoqda va bu o'z o'rnida biz tahlil ostiga olishimiz lozim deb qaralgan bir qator muammolarni o'rganishni talab etadi.

Sun'iy intellekt va raqobat huquqining kesishuv nuqtalari: asosiy muammolar.

Sun'iy intellektning (SI) zamonaviy tijorat faoliyatiga integratsiyalashuvi raqobat huquqi uchun bir vaqtning o'zida mislsiz imkoniyatlar va mutlaqo yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirdi. Aslida, raqobat siyosatining asosiy maqsadi iste'molchilar farovonligini ta'minlash, raqobatga zid amaliyotlarning oldini olish hamda bozorlarning innovatsiyalar uchun ochiq bo'lib qolishini kafolatlashdan iborat. Biroq, sun'iy intellektning murakkabligi, xususan, uning ma'lumotlarni nihoyatda tez qayta ishlash qobiliyati, o'z-o'zini o'rganishi va deyarli bir zumda qaror qabul qilishi, nisbatan sekinroq

va shaffofroq bozor jarayonlari uchun ishlab chiqilgan an'anaviy tartibga solish mexanizmlaridan ustun kelishi mumkin [3]. Shu sababli, sun'iy intellektning rivojlanishi algoritmlar orqali yuzaga keladigan kelishilgan xatti-harakatlar, ma'lumotlar ustunligiga asoslangan yangi hukmronlik shakllari, yirik platformalarning o'z mahsulot va xizmatlarini ustun qo'yishi (self-preferencing), yangi texnologiyalarni baholashda qo'shilishlarni nazorat qilishdagi qiyinchiliklar hamda raqamli bozorlarning transchegaraviy tabiati kabi masalalar atrofidagi munozaralarni keskinlashtirdi mazkur maqolada sun'iy intellekt orqali sodir etiladigan raqobatga zid xatti-harakatlar asosiy o'rganiladigan predmet sifatida o'rta chiqadi. Ushbu muammolar majmuyi sun'iy intellektning raqobat huquqida uzoq yillardan beri shakllangan doktrinalar va huquqni qo'llash paradigmalariga ko'p qirrali tarzda bosim o'tkazayotganini ko'rsatadi.

Eng dolzarb muammolardan biri bozor ishtirokchilari sun'iy intellektga asoslangan narx belgilash vositalaridan foydalangan hollarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan **algoritmik kelishuvlar va boshqa kelishilgan xatti-harakatlar** ehtimolidir. An'anaviy yondashuvga ko'ra, kartel yoki kelishuv mavjudligini aniqlash uchun narxlarni belgilash, bozorlarni taqsimlash yoki ishlab chiqarishni cheklashga qaratilgan ochiq kelishuv, axborot almashinuvi yoki "fikrlar mos kelishi" talab etilgan. Sun'iy intellekt kontekstida esa bunday ochiq kelishuvlar ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Raqobatchilar haqidagi real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bilan ta'minlangan ilg'or algoritmlar raqiblarning narxlariga bir zumda moslashib yoki ularni biroz pasaytirib, amalda natijalarni muvofiqlashtirishi mumkin. Bu holat sun'iy ravishda narxlarning oshishiga yoki iste'molchilar tanlovining qisqarishiga olib keladi. Bunday algoritmlar an'anaviy ma'noda o'zaro muloqot qilishi shart emas. Aksincha, har bir tizim bozor signallarini, ko'pincha, boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar tomonidan yaratilgan signallarni, talqin qilib, barqaror va raqobatbardosh bo'lmagan narx darajalariga erishadi. Ushbu jarayonlar to'g'ridan-to'g'ri inson nazoratisiz sodir bo'lishi mumkinligi sababli, qonuniy parallel xatti-harakatlar qayerda tugab, yashirin kelishuv qayerda boshlanishini aniqlash nihoyatda murakkablashadi.

Agar bir nechta kompaniyalar murakkab narx belgilash algoritmlaridan foydalansa, ular takroriy o'zaro ta'sirlar jarayonida muayyan narx darajalari yuqoriroq foyda keltirishini o'rganishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan algoritmlar o'zaro manfaatli muvozanatga kelib, amalda kartelga xos oqibatlarni takrorlash ehtimoli mavjud. Ko'plab huquqiy tizimlarda yashirin kelishuvning o'zi har doim ham noqonuniy deb topilavermaydi, chunki zarur bo'lgan niyat yoki kelishuvni isbotlash qiyin. Biroq sun'iy intellekt raqamli bozorlarda narx tuzilmalari qotib qolishi, ya'ni narxlarning sun'iy ravishda yuqori darajalarda bir-biriga yaqinlashish xavfini kuchaytiradi va bu iste'molchilar manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bilan birga, raqobat organlari aralashuvda qiynaladi, chunki ular oddiy parallel xatti-harakatlardan tashqari haqiqiy muvofiqlashtirish mavjudligini isbotlashi lozim. Sun'iy intellekt tomonidan yuzaga kelgan narxlarning uyg'unlashuvi odatda insonlar ishtirokidagi fitnalarga xos bo'lgan elektron xatlar yoki yozishmalar kabi aniq dalillarni qoldirmaydi. Bu borada xalqaro darajadagi keysdan namuna keltirmoqchimiz.

2015-yilda AQSh Adliya vazirligi (Department of Justice – DOJ) Amazon onlayn savdo maydonchasida faoliyat yuritgan sotuvchilardan biri Devid Topkinsga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atdi. U 2013-yil sentabridan 2014-yil yanvarigacha bo'lgan davrda boshqa sotuvchilar bilan birgalikda onlayn tarzda sotilgan plakatlar (posterlar) narxlarini muvofiqlashtirganlikda ayblangan. DOJ tomonidan e'lon qilingan tergov tafsilotlariga ko'ra, Devid Topkins va boshqa kelishuv ishtirokchilari dinamik narx belgilash algoritmlarini ishlab chiqqan va ularni o'zaro bo'lishgan bo'lib, mazkur algoritmlar ularning kelishuviga muvofiq harakat qilish tarzida dasturlashtirilgan.

Algoritmik narx belgilash o'zi mustaqil ravishda noqonuniy hisoblanmaydi va ko'plab sohalarda keng tarqalgan amaliyotdir. Biroq aynan algoritmlarni birgalikda joriy etish bo'yicha kelishuv

mavjudligi ushbu holatda DOJ tomonidan huquqiy choralar ko'rilishiga asos bo'lgan. Shundan so'ng, tadqiqotchilar maqsadli narxlar bo'yicha vaqt seriyalari (target price time series) yordamida Amazon platformasida faoliyat yuritayotgan boshqa ko'plab algoritmik sotuvchilarni aniqlashga muvaffaq bo'lganlar, biroq yangi til biriktirish holatlari qayd etilmagan.

Darhaqiqat, mavjud bilimlarimizga ko'ra, ushbu ish hozirga qadar har qanday raqobat organi tomonidan aniqlangan va jinoiy javobgarlikka olib kelgan yagona algoritmik kartel holati bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur ish algoritmlarning raqobatga ta'siri va ular bilan bog'liq xatarlar masalasida olimlar hamda amaliyotchilar orasida ortib borayotgan qiziqishda muhim, asosiy o'rin tutadi.

Algoritmlar shunchaki bozor signallariga javob qaytaradi, bunda ochiq kelishuv niyati ifodalanmaydi. Bu esa regulyatorlarni avtonom qaror qabul qilish davri uchun yangi ta'riflar yoki huquqiy prezumpsiyalar zarurmi, degan savolni qo'yishga majbur qilmoqda [4].

Yana bir muhim masala, **sun'iy intellekt bozor hukmronligini mustahkamlashi va bozorga kirish uchun juda yuqori to'siqlarni yuzaga keltirishi** bilan bog'liqdir. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma'lumotlar asosiy resurs (input) vazifasini bajaradi: yuqori samaradorlikka ega sun'iy intellekt modellarini yaratish va ularning aniqligini oshirish uchun keng ko'lamli ma'lumotlar to'plamlari talab etiladi. Bunday ma'lumotlarga erta va keng miqyosda ega bo'lgan firmalar, odatda yirik texnologik konglomeratlar, o'z algoritmlarini kichik raqobatchilarga nisbatan ancha tez takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mazkur ma'lumotlarga asoslangan ustunlik o'z-o'zini mustahkamlovchi xususiyatga ega bo'lishi mumkin.[5] Sun'iy intellekt tizimi takomillashgani sari ko'proq foydalanuvchilar mazkur platformaga jalb qilinadi, bu esa yanada ko'p ma'lumotlar yig'ilishiga olib keladi va natijada sun'iy intellekt yanada rivojlanadi. Ayrim sohalarda, xususan, qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli savdo maydonchalarida tez kengayuvchi sun'iy intellektga asoslangan platformalar "g'olib hammasini oladi" (winner-takes-all) ga o'xshash bozor dinamikasiga erishishi mumkin. Bunday hukmronlik shakllangach, raqiblar uchun bozorga kirish deyarli imkonsiz bo'lib qoladi, chunki ular amaldagi yetakchi kompaniyaning sun'iy intellekt salohiyatiga tenglasha oladigan hajm va xilma-xillikdagi ma'lumotlarga ega emas. Raqobat huquqi nuqtayi nazaridan, ma'lumotlarga asoslangan bunday tarmoq samaralari sun'iy intellekt kontekstida tegishli bozorni aniqlash va ustun mavqeni baholash masalalarini murakkablashtiradi. Masalan, bitta platforma ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat va kontent tarqatish xizmatlarini birlashtirishi mumkin bo'lib, ularning barchasi foydalanuvchi xatti-harakatlarini turli xizmatlar kesimida tahlil qiladigan yagona sun'iy intellekt tizimlari orqali boshqariladi. Natijada iste'molchilarni platformaga "bog'lab qo'yuvchi" kuchli mexanizm yuzaga keladi, bu esa amaldagi yetakchi kompaniyaning bozor pozitsiyasini yanada mustahkamlaydi va shunday integratsiyalashgan ma'lumotlar ekotizimini takrorlay olmaydigan potensial raqiblar uchun bozorga kirish to'siqlarini yanada oshiradi [6].

Raqobat huquqida **"muhim infratuzilma"** tushunchasi raqobat uchun shu qadar zarur bo'lgan resurslarni anglatadiki, ulardan foydalanishni cheklash yoki rad etish ustun mavqeni suiiste'mol qilish sifatida baholanishi mumkin. Raqobat organlari aynan qanday mexanizmlar orqali ma'lumotlar almashinuvini majburiy joriy etishi yoki potensial raqobatchilarga bozor ulushini qo'lga kiritish imkonini ta'minlashi lozimligi masalasi hozirda keskin ilmiy va siyosiy bahslar markazida turibdi. Shu bilan bog'liq holda, sun'iy intellekt ustun mavqeni suiiste'mol qilishning yangi shakllarini, xususan o'z mahsulotini afzal ko'rish (self-preferencing) holatlarini kuchaytirishi mumkin. Bunga eng yorqin misol sifatida iste'molchilarga eng mos keladigan natijalar yoki mahsulotlarni taqdim etish uchun sun'iy intellektidan foydalanadigan tavsiya tizimlari, qidiruv algoritmlari yoki raqamli savdo maydonchalarini keltirish mumkin. Nazariy jihatdan, bunday vositalar natijalarni shaxsiylashtirish orqali foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi. Amaliyotda esa, agar platforma operatori o'zi ham

mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilsa, masalan, onlayn chakana savdo, sayohat bron qilish, qidiruv yoki tavsiya algoritmlarining asosi bo'lgan sun'iy intellekt platformaning o'ziga tegishli takliflarni tizimli ravishda ustun qo'yishi mumkin. Mazkur holat self-preferencing deb ataladi va u ilgari ustun mavqedagi firmalar vertikal integratsiya orqali raqiblarni kamsitgan klassik suiiste'mol ishlariga o'xshashlik kasb etadi. Biroq avvalgiga nisbatan ochiq shakllardan farqli o'laroq, sun'iy intellektga asoslangan tavsiya tizimlari reyting yoki ko'rsatish mantig'ini yashirishi mumkin. Iste'molchilar hatto ularga birinchi bo'lib ko'rsatilayotgan mahsulotlar eng sifatli yoki eng arzon variantlar emas, balki platformaning o'z foydasini maksimal darajada oshiradigan takliflar ekanini sezmasligi ham mumkin [7]. Bunday kamsitish raqobatchilarni bozorga kirish imkoniyatidan amalda mahrum qilishi mumkin. Yirik savdo maydonchasidagi kichik sotuvchilar, mahsulotlarining sifati yoki narxi raqobatbardosh bo'lishiga qaramay, yuqori qidiruv natijalarida ko'rinmasligi ehtimoli katta. Vaqt o'tishi bilan bunday chetlatilgan raqobatchilar bozordan chiqib ketishga majbur bo'lishi mumkin, bu esa iste'molchilar tanlovining qisqarishiga va innovatsiyaning susayishiga olib keladi. Algoritmik tarfakashlikning bunday shaklini aniqlash nihoyatda murakkab, chunki har bir foydalanuvchi uchun qidiruv natijalari shaxsiylashtirilgan bo'ladi. Raqobat organlari kamsitishning barqaror holatini aniqlash uchun ulkan hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi, shuningdek, yetkazilgan zarar shunchaki samaradorlik oshirishining yon mahsuloti emasligini isbotlashi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, platformalar ko'pincha o'z mahsulotlarini afzal ko'rishni foydalanuvchi tajribasini yaxshilashga qaratilgan optimallashtirish strategiyasi sifatida oqlashga harakat qiladi. Bunday dalillar muayyan darajada asosli bo'lishi mumkin, biroq sun'iy intellektga asoslangan qaror qabul qilishning shaffof emasligi raqobatga zid amaliyotlarni yashirish uchun qulay niqob bo'lib, xizmat qilishi ehtimoli ham mavjud. Natijada, regulyatorlar va sudlar platformaning dizayn qarorlari bilan raqobatga yetkazilgan zarar o'rtasida sababiy bog'liqlikni aniqlash uchun murakkab sun'iy intellekt modellarini texnik jihatdan tahlil qilish muammosiga duch keladi.

Sun'iy intellekt davrida **birlashish va qo'shib olishlarni nazorat qilish (merger control)** ham bahsli sohalardan biriga aylandi. Yirik texnologik kompaniyalar kichik, ammo innovatsion sun'iy intellekt startaplarini sotib olishga odatlanib bormoqda, bu esa "raqobatni yo'q qiluvchi xaridlar" (killer acquisitions) xavfi bilan bog'liq tashvishlarni kuchaytiradi. Bunday bitimlar nishon kompaniya hozircha katta daromadga ega bo'lmagani sababli, darhol shubha uyg'otmasligi mumkin, biroq mazkur sun'iy intellekt texnologiyasi kelajakda bozorni tubdan o'zgartirishi ehtimoli mavjud. Potensial raqiblarni erta bosqichda sotib olish orqali amaldagi yetakchilar kelajakdagi texnologik tahdidlarni bartaraf etadi. Raqobat organlari uchun asosiy qiyinchilik sun'iy intellekt sohasidagi yangi firmalarning kelajakdagi raqibiy ahamiyatini oldindan baholashdan iborat. An'anaviy birlashishlarni ko'rib chiqish jarayonlari odatda bozor ulushi, aylanma mablag' va mahsulotlarning o'zaro mos kelishi kabi aniq ko'rsatgichlarga tayanadi [8]. Holbuki, sun'iy intellekt startapi sezilarli daromad yoki tayyor mahsulotga ega bo'lmasligi, biroq kelajakda butun sanoatni o'zgartirishi mumkin bo'lgan patent yoki texnologiyaga egalik qilishi mumkin. Baholashdagi murakkabliklar ham vaziyatni yanada chalkashtiradi: yirik texnologik kompaniyalar ko'pincha darhol daromad keltirmaydigan firmalar uchun katta mablag' to'laydi, bu esa ushbu yuqori narx raqobatni kelajakda yo'q qilish strategiyasini aks ettiryaptimi, degan savollarni tug'diradi.

Milliy huquq tizimidan farqli ravishda, Yevropa Ittifoqi va AQShdagi raqobat organlari so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga oluvchi yangi yondashuvlarni ishlab chiqish maqsadida birlashish bo'yicha chegaralar va ko'rsatmalarni qayta ko'rib chiqishni boshladi. Ushbu islohotlar muayyan darajada foydali bo'lishi mumkin, biroq agar regulyatorlar kichik kompaniyalarni sotib olish bitimlarini haddan tashqari tez bloklay yoki murakkablashtirsa, bu ortiqcha aralashuv xavfini tug'diradi. Axir, birlashishlar sun'iy intellekt startaplarini kapital va tarqatish kanallari bilan

ta'minlab, foydali texnologiyalarning keng joriy etilishini tezlashtirishi ham mumkin. Shu bois, haqiqatan, raqobatga zid bitimlarni to'sish bilan qiymat yaratuvchi kelishuvlarga ruxsat berish o'rtasidagi muvozanatni topish doimiy va murakkab vazifa bo'lib qolmoqda.

Nihoyat, sun'iy intellekt va raqamli bozorlarning **transchegaraviy ijro etilishi** bilan bog'liq muammo ham alohida ahamiyat kasb etadi. Aksariyat yirik sun'iy intellektga asoslangan platformalar global foydalanuvchilar bazasiga xizmat ko'rsatadi va ma'lumotlar hamda operatsiyalarni bir nechta yurisdiksiyalar bo'ylab integratsiya qiladi. Bir mamlakatda joylashgan kompaniya dunyo bo'ylab millionlab iste'molchilarga raqamli xizmatlar ko'rsatishi, turli hududlarda joylashgan ma'lumot markazlaridan foydalanishi mumkin. Biroq raqobat organlarining vakolatlari, odatda, dalillarni yig'ish yoki choralar ko'rishda milliy yoki mintaqaviy chegaralar bilan cheklanadi. Hatto Yevropa Ittifoqi yoki AQSh kabi yirik yurisdiksiyalar doirasida ham a'zo davlatlar yoki shtatlar darajasidagi qoidalar farq qilishi mumkin, bu esa hamkorlikdagi ijro choralarini murakkablashtiradi. Mos kelmaydigan qoidalar va bo'lingan nazorat tizimi natijasida kompaniyalar raqobat huquqi talablari sustroq bo'lgan hududlarda ma'lumotlarni qayta ishlash markazlarini joylashtirish yoki asosiy ofislarini ro'yxatdan o'tkazish orqali yurisdiksiyaviy arbitrajdan foydalanishi mumkin. Bunday holatlar sun'iy intellektni tartibga solishda muvofiqlashtirilgan va samarali yondashuvni jiddiy ravishda zaiflashtiradi [9].

Yuqorida ko'tarilgan muammolarni hal etish raqobat organlari o'rtasida, ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama darajalarda, yanada mustahkam hamkorlikni talab etadi. Qo'shma tergovlar o'tkazish, axborot almashish va choralarni muvofiqlashtirilgan tarzda qo'llash mexanizmlari sun'iy intellektga asoslangan kompaniyalarning yurisdiksiyaviy bo'shliqlardan foydalanib, huquqni qo'llashdan chetlab o'tishiga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, xalqaro standartlarni belgilovchi tashkilotlar va transchegaraviy tartibga solish forumlari tushunchalar va asosiy tamoyillarni uyg'unlashtirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu asosiy masalalarni yagona umumiy mavzu birlashtiradi: sun'iy intellekt iqtisodiy rag'batlar va bozor tuzilmalarini shunday o'zgartiradiki, bu holatlar raqobat huquqining an'anaviy toifalari va taxminlaridan chetda qolishi mumkin. Algoritmik kelishuvlar ilgari ochiq-oydin fitna sifatida namoyon bo'lgan xatti-harakatlarni endilikda bilvosita yoki hatto qasddan bo'lmagan muvofiqlashtirish shakliga aylantiradi, bu esa huquqbuzarlikni isbotlashni ancha qiyinlashtiradi. Avvallari, asosan, jismoniy aktivlar yoki brendga sodiqlik bilan bog'langan bozor ustunligi hozirda ko'proq ma'lumotlar va ularni tijoriy qiymatga aylantiruvchi bashoratli tahlil vositalariga tayanmoqda. O'z mahsulotini afzal ko'rish kabi klassik suiiste'mol shakli esa iste'molchi tanlovlarini shakllantiruvchi, shaffof bo'lmagan tavsiya tizimlariga singdirilganda yanada murakkab va nozik ko'rinish kasb etadi. Birlashishlarni nazorat qilish tizimi ham, an'anaviy ravishda daromadga asoslangan chegaralar va qisqa muddatli bozor kesishmalariga tayanib kelgan bo'lsa-da, sun'iy intellekt startaplari sohasida nomoddiy va kelajakka qaratilgan baholash muammolari bilan yuzlashmoqda. Nihoyat, yetakchi sun'iy intellekt platformalarining global xususiyati milliy va mintaqaviy regulyatorlarning vakolatlari o'z hududlari bilan cheklangan, parchalangan nazorat tizimiga to'qnash kelmoqda. Agar raqobat organlari bozor sog'lomligini va iste'molchilar farovonligini himoya qiluvchi samarali institutlar bo'lib qolishni istasa, ular o'z doktrinalari va vositalarini ushbu chaqiriqlarga moslashtirishga majbur bo'lishi mumkin. Masalan, algoritmik shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan takliflar, xususan, kompaniyalardan sun'iy intellekt kodining ayrim elementlari yoki o'qitish ma'lumotlarini regulyatorlarga taqdim etishni talab qilishi yashirin kelishuvlar yoki o'z mahsulotini afzal ko'rish holatlarini aniqlashga yordam berishi mumkin. Biroq bunday oshkor etishlar intellektual mulk huquqlari va kiberxavfsizlik bilan bog'liq asosli xavotirlarni ham keltirib chiqaradi.

Muqobil variant sifatida, raqobat organlari tarkibida murakkab algoritmlarni tahlil qila oladigan ma'lumotlar olimlari va sun'iy intellekt mutaxassislaridan iborat ixtisoslashgan bo'linmalarni tashkil etish taklif etilishi mumkin. Bunday mutaxassislar raqobatga zid xatti-harakatlarni yaxshiroq aniqlash, shuningdek, sun'iy intellekt taraqqiyotining raqobatni qo'llab-quvvatlovchi afzalliklarini ehtimoliy xavflar bilan muvozanatda baholash imkonini beradi. Ammo regulyator salohiyatini kuchaytirish doimiy moliyaviy va siyosiy qo'llab-quvvatlashni talab qiladi, bu esa byudjeti cheklangan sharoitlarda har doim ham mavjud bo'lavermaydi.

Ayrim hollarda, ayniqsa amaldagi huquqiy asos sun'iy intellektning o'z-o'zini o'rganuvchi xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmagan vaziyatlarda, yangi qonunchilik choralari qabul qilish zarur bo'lishi mumkin. Bunday islohotlar inson tomonidan bevosita kelishuv bo'lmagan taqdirda ham algoritmik kelishuvlarning ayrim shakllarini aniq taqiqlashni yoki amaldagi daromad chegaralaridan past bo'lgan texnologik xaridlar uchun kuchaytirilgan birlashish nazoratini joriy etishni o'z ichiga olishi mumkin. Asosiy muammo esa shundan iboratki, qoidalar bir tomondan huquqiy aniqlikni ta'minlaydigan darajada ravshan, ikkinchi tomondan esa tezkor texnologik taraqqiyotga moslasha oladigan darajada moslashuvchan bo'lishi lozim. Haddan tashqari qat'iy tartibga solish innovatsiyani bo'g'ib qo'yishi mumkin, yetarlicha qat'iy bo'lmagan qoidalar esa algoritmik niqob ortida monopolistik amaliyotlarning kengayishiga zamin yaratadi.[10]

Sun'iy intellekt (SI) va raqobat huquqi sohasida yuzaga kelayotgan murakkab muammolarga javoban taklif etilayotgan uch bosqichli yondashuv, ya'ni:

sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari va regulyatorlar o'rtasida oldindan hamkorlik;

raqobat organlarining o'z faoliyatida sun'iy intellektidan strategik foydalanishi;

transchegaraviy hamkorlikni kuchaytirish muvozanatli va istiqbolli yechim sifatida namoyon bo'ladi, quyida bularga batafsil to'xtalib o'tamiz. Yuqoridagi bo'limlarda ko'rsatilganidek, sun'iy intellekt bozor tuzilmalarini an'anaviy huquqiy vositalar orqali tartibga solish qiyin bo'lgan tarzda tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega. Algoritmik kelishuvlar, ma'lumotlarga asoslangan ustunlik va yashirin o'zini ustun qo'yish (self-preferencing) amaliyotlari texnologiyaning o'zi kabi innovatsion va moslashuvchan siyosiy choralarni talab qiladi. Quydagi takliflar hamkorlikka asoslangan muloqot, ijroni kuchaytirish imkoniyatlari va muvofiqlashtirilgan xalqaro harakatlarga urg'u beruvchi kompleks strategiyani ifodalaydi deb aytsak bo'ladi.

Ushbu yondashuvning eng ilg'or jihati sun'iy intellekt ishlab chiquvchilari va raqobat organlari o'rtasidagi preventiv hamkorlikdir. Sun'iy intellekt tizimlari keng joriy etilishini yoki undan ham yomoni, aniq zararlar yuzaga kelishini kutish o'rniga, regulyatorlar monopoliyaga qarshi (antimonopoliya) masalalarni sun'iy intellektni loyihalash bosqichining o'zidayoq inobatga olish tashabbusini ko'rsatishlari mumkin. Bunday hamkorlik shakllaridan biri sifatida moliyaviy texnologiyalar (fintech) sohasidan olingan "regulyator qumdonlar" (regulatory sandboxes) ni ko'rsatish mumkin. Bu mexanizm doirasida yangi sun'iy intellekt ilovalarini sinovdan o'tkazayotgan kompaniyalar moslashuvchan, biroq tuzilmaviy nazorat ostida faoliyat yuritadilar. Mazkur qumdonlarda kompaniyalar o'z algoritmlarining funksiyalari va maqsadlarini oshkor etib, regulyatorlarga kelishuv, bozorni siqib chiqarish yoki raqobatchilarni chetlatish xavflari bo'yicha fikr bildirish imkonini yaratadi. Natijada, raqobat organlari shakllanib kelayotgan bozor amaliyotlarini yaxshiroq anglaydi va algoritmik dizayn raqobatga zid xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan jihatlarini oldindan aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv nafaqat raqobatga zid natijalar ehtimolini kamaytiradi, balki ishlab chiquvchilar uchun huquqiy aniqlikni oshiradi va iste'molchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektni loyihalash jarayoniga muvofiqlik (compliance) tamoyillarini integratsiya qilish algoritmik shaffoflik masalasining ahamiyatini ham ta'kidlaydi. Manba kodini to'liq oshkor qilish

kabi mutlaq shaffoflik talablari haddan tashqari og'ir yoki tijorat sirlariga xavf tug'dirishi mumkin bo'lsa-da, algoritmning qanday qaror qabul qilayotgani haqida ma'lum darajadagi tushuncha samarali raqobat nazorati uchun zarurdir. Shu bois ishlab chiquvchilardan ichki yoki tashqi auditorlar tizimli og'ishlar, kamsituvchi narx belgilash va tavsiya mexanizmlarida yuzaga keluvchi yashirin kelishuvlarni aniqlay oladigan tushuntiriladigan sun'iy intellekt (explainable AI) protokollarini joriy etish talab qilinishi mumkin. Regulyatorlar va soha mutaxassislari bilan muntazam muloqot ushbu shaffoflik mezonlarini takomillashtirishga yordam beradi va intellektual mulkni himoya qilish bilan algoritmik "qora quti" muammosining oldini olish o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi.

Biroq preventiv hamkorlik yondashuvi ham ijobiy, ham salbiy jihatlariga ega. Ijobiy tomondan, u kompaniyalarni dastlabki bosqichdanoq raqobatga mos amaliyotlarni joriy etishga undaydi va keyinchalik keskin ijro choralari ehtiyojni kamaytiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt muhandislari raqobat talablarini kiberxavfsizlik yoki ma'lumotlarni himoya qilish kabi asosiy dizayn tamoyili sifatida qabul qila boshlaydi. Biroq bu jarayonda regulyatorlar tomonidan yetarli mustaqillik saqlanmasa, "regulyatorni egallab olish" (regulatory capture) xavfini ham keltirib chiqaradi, ya'ni yirik inkumbentlar muhokamalarda ustunlik qilib, o'z manfaatlariga mos qoidalarni shakllantirishi mumkin. Bundan tashqari, haddan tashqari murakkab oldindan tasdiqlash jarayonlari startaplar uchun to'siq bo'lib, aksincha, mavjud yirik o'yinchilarning mavqeini mustahkamlab qo'yishi ehtimoli mavjud. Shu bois, yo'l-yo'riq beruvchi nazorat va innovatsiya erkinligi o'rtasidagi muvozanatni topish muhim vazifa bo'lib qoladi. Qolaversa, taklif raqobat organlarining o'zlarini sun'iy intellekt yordamida kuchaytirishga qaratilgan. An'anaviy ravishda raqobat idoralari hujjatlarni tahlil qilish, guvohlarni so'roq qilish va murakkab iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganishda inson resurslariga tayangan. Biroq sun'iy intellekt asosidagi bozorlarda hosil bo'layotgan raqamli ma'lumotlar hajmi texnologik jihatdan ilg'or vositalarni talab etadi. Sun'iy intellekt shubhali narxlar, keskin bozor og'ishi yoki kelishuvdan darak beruvchi savdo amaliyotlarini aniqlashda kuchli yordamchi bo'lishi mumkin. Masalan, real vaqt rejimida elektron tijorat platformalari yoki fond bozorlarini kuzatuvchi avtomatlashtirilgan tizimlar raqobatga xos bo'lmagan narx tebranishlarini belgilab bera oladi. Bu ayniqsa algoritm o'zaro yashirin tarzda narxlarni muvofiqlashtiradigan holatlarda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday vaziyatlarda an'anaviy "ex post" tergovlar samarasiz bo'lishi mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida bir nechta manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish orqali ustun mavqeni suiiste'mol qilishning yashirin shakllarini aniqlash mumkin. Masalan, qidiruv natijalari reytingidagi o'zgarishlar bilan raqobatchilar trafiklaridagi pasayishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali platformaning o'z mahsulotlarini tizimli ravishda ustun qo'yayotgani fosh etilishi mumkin. Shu bilan birga, bunday texnologiyalarni joriy etish muayyan amaliy muammolarni keltirib chiqaradi. Ko'plab raqobat organlari moliyaviy cheklovlar sababli ma'lumotlar olimlari va mashinaviy o'rganish mutaxassislari jalb eta olmaydi. Xususiy yetkazib beruvchilarning sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish esa manfaatlar to'qnashuvi yoki tashqi texnologiyalarga haddan tashqari qaramlik xavfini tug'diradi. Bundan tashqari, samarali monitoring uchun kompaniyalar bilan ma'lumot almashish zarur bo'lib, bu tijorat sirlarini himoya qilish va kiberxavfsizlik masalalarini keskinlashtiradi.

Uchinchi va yakuniy bosqich transatlantik hamkorlik va muvofiqlashtirilgan tartibga solish strategiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Yevropa Ittifoqi va AQSh raqobat huquqi sohasida eng ta'sirchan yurisdiksiyalar bo'lib, yirik texnologik kompaniyalar har ikkala bozorda faoliyat yuritadi. Sun'iy intellekt global savdoning markaziga aylanayotgan bir sharoitda, transchegaraviy ijro bo'shliqlarini bartaraf etish uchun yagona yondashuv milliy huquq tizimi uchun ham zarur deb baholaymiz.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. Christophe Samuel Hutchinson, "Potential Abuses of Dominance by Big Tech through Their Use of Big Data and AI" (2022) 10(3) Journal of Antitrust Enforcement 443
2. Boudreau K. J., Jeppesen L. B., Miric M. Competing on freemium: Digital competition with network effects // Strategic Management Journal. – 2022. – T. 43. – №. 7. – C. 1374-1401.
3. Van Cleynenbreugel, "AI Algorithms, Price Discrimination and Collusion: A Technological, Economic and Legal Perspective" (2020) 50 European Journal of Law and Economics 405.
4. Caroline A Crenshaw, "Statement on DeFi: Risks, Regulations, and Opportunities" (SEC, 9 November 2021) accessed 3 February 2025.
5. Julius Tan Gonzales, "Implications of AI Innovation on Economic Growth: A Panel Data Study" (2023) 12 Journal of Economic Structures volume 13.
6. Ilias Ioannou and Guven Demirel, "Blockchain and Supply Chain Finance: A Critical Literature Review at the Intersection of Operations, Finance and Law" (2022) 6 Journal of Banking and Financial Technology, 83, 87.
7. Vargiu M. Revitalisation of the Essential Facilities Doctrine in EU competition law. The complementarity with the new Digital Markets Act //JL, Mkt. & Innovation. – 2023. – C. 104.
8. Andreas von Bonin and Sharon Malhi, "The Use of Artificial Intelligence in the Future of Competition Law Enforcement" (2020) 11 (8) Journal of European Competition Law & Practice 468, 468.
9. Stefan Scheuerer, "Artificial Intelligence and Unfair Competition – Unveiling an Underestimated Building Block of the AI Regulation Landscape" (2021) 70(9) GRUR International 834, 834-836.
10. Emilio Calvano, Giacomo Calzolari, Vincenzo Denicolò and Sergio Pastorello, "Artificial Intelligence, Algorithmic Pricing, and Collusion" (2020) 110(10) The American Economic Review 3267; and Axel Gautier, Atia Ittoo and Pieter.

YURIST AXBOROTNOMASI

1-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 1

LAWYER HERALD

ISSUE 1

ISSN 2181-9416

2026-YIL